

## INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILUVCHI DAVLAT MUASSASALARI HUQUQIY MAQOMI

Turg'anbayeva Indira Janabayevna

*Xorazm viloyati Gurlan tumani 24-maktabning Huquq va tarbiya fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *ushbu maqolada inson huquqlarini himoya qiluvchi davlat muassasalari huquqiy maqomi va turlari haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *inson huquqlari, Oliy Majlis Vakili, Ombudsman, implementatsiya qilish, xalqaro majburiyatlar.*

Keyingi yillarda jahondagi ko'plab ilg'or mamlakatlar kabi mamlakatimizda ham inson huquqlari masalalari bilan shug'ullanuvchi milliy institutlar tashkil topdi. Inson huquqlari bo'yicha Oliy Majlis Vakili (Ombudsman), Inson huquqlari Milliy Markazi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi amaldagi qonun hujjatlari Monitoringi instituti shular jumlasidandir. Ularni barchasining vazifasi inson huquq va erkinliklarini himoyalashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasidagi barcha inson huquqlarini himoya qiluvchi milliy institutlarning maqsadlari - bu qonunchilikni asosan inson huquqlari bo'yicha rivojlantirish va takomillashtirish, uni umuminsoniy hamda xalqaro me'yorlarga yaqinlashtirishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 22.06.2020 yildagi PF-6012-sonli Farmonida:

So'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (keyingi o'rinlarda — BMT) 6 ta asosiy shartnomaci va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda.

Bundan tashqari, milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Shu bilan birga, inson huquqlari sohasida uzoq muddatli strategiyaning qabul qilinishi ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishiga, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat munosabati shakllanishiga, mamlakatning xalqaro maydondagi



obro'si yanada mustahkamlanishiga, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy-huquqiy reyting hamda indekslardagi mavqeyi yaxshilanishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismlari bo'lgan inson huquqlari va manfaatlarini kabi demokratik qadriyatni rivojlantirish imkoniyatini berdi. Istiqloq yillari davomida yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha jabhalardagi islohotlar inson qadr-qimmatini yuksaltirish, inson huquqlari va erkinliklariga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirish, aholi uchun munosib turmush tarzini yaratishga qaratilgan. Mustaqil O'zbekistonning Bosh Qomusi – Konstitutsiyasining 2-bo'limida inson huquqlari va erkinliklarining umum e'tirof etilgan standartlari o'z ifodasini topdi, davlatning fuqaro oldida ma'sulligi mustahkamlandi.

Zero O'zbekiston Respublikasida insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlash nafaqat davlat doirasidagi harakatlar bilan cheklanmasdan, xalqaro munosabatlarda inson huquqlariga doir universal xalqaro-huquqiy hujjatlarga qo'lishilib bormoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tomonidan inson huquqlariga doir 60 yaqin xalqaro huquqiy hujjatlarga qo'shilib, bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya, Qiynoq va boshqa shavqatsiz, inson qadr-qimmatini kamstuvchi g'ayrinsoniy muomala turalir va jazolarga barham berish to'g'risidagi Konvensiya, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi Pakt ushbu hujjatlarning jumlasindandir.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan davlat mustaqilligining dastlabki damlarida ya'ni 1991-yilda Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasiga qo'shilganligida chuqur ramziy ma'no bor.

O'zbekistonda inson huquqlari masalalari qay darajada rivojlanganligini ilmiy-amaliy tahlil qilish, tegishli tavsiya va xulosalarni qabul qilish nihoyatda e'tiborga sazovordir. Zero, Inson huquqlariga oid Yevropa standartlari O'zbekistonda ham muayyan darajada o'z ifodasini topish mamlakatimizni yanada rivojlantirish shubhasiz.

Inson huquqlari va erkinliklarini mustahkamlashga doir O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati izchil rivojlanib borib, mamlakatimiz inson huquqlariga sodiqligi o'zining konstitutsiyaviy ifodasini topib, bugungi kunda shu sohada keng qonunchilik bazasi yaratildi. Muhimi shundaki, O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini tobora mustahkamlash va rivojlantirish uchun hal qiluvchi omillar jumladan xalq hokimiyatchiligi, davlatning inson oldida mas'ulligi belgilandi.

Respublikamiz Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan insonning huquq va erkinliklari umum e'tirof etilgan xalqaro-huquqiy standartlarga to'liq mos kelib, mamlakatimiz siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohada yuksalishigiga mustahkam huquqiy zamin yaratadi. Mamlakatimiz asosiy qonunida mustahkamlangan asosiy huquq va erkinliklar har bir insonga, har bir fuqaroga taaluqli bo'lib, barcha uchun teng va barobardir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida inson huquqlariga sodiqlik tantanali ravishda e'lon qilingan, unda hozirgi zamon konstitutsiyalariga xos bo'lgan umumiy yo'nalishlar aks etgan, insonning shaxsiy huquq va erkinliklari birinchi o'ringa qo'yilgan.



Unda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, ularning kafolati hamda fuqarolarning burchlari mustahkamlangan.

Inson huquqlarini ta'minlashda muhim masala - aholi huquqiy ongini yanada yuksaltirishdan iborat bo'lib, mazkur sohada xalq xo'jaligining muhim tarmog'larida inson huquqlari ta'minlanishini targ'ib qilishdan iborat bo'lishi lozim. Fikrimizcha, bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim choralar dastlabki tergov va surishtiruv davomida jinoyat prostessi ishtirokchilari, ayniqsa gumonlanuvchi, ayblanuvchi huquqlari, kommunal xo'jalik xizmatlaridan foydalanishda aholining huquqlari, sudga murojaat etish tartibini izohlaydigan maxsus risolalarni chop etishi lozim. Aholi huquqiy ongini oshirishi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bugungi kunda aynan prostessual normalarining aniq bajarilishini nazorat qilib borish g'oyat muhim. Chunki bugun aholining huquqiy ongini oshirish bo'yicha olib borgan harakatlarimiz, ertaga huquqiy ongi va huquqiy madaniyati shakllangan shaxsni beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 22.06.2020 yildagi PF-6012-sonli Farmoni
2. Khodjamkulov, U., Makhmudov, K., & Shofkorov, A. (2020). The Issue of Spiritual and Patriotic Education of Young Generation in the Scientific, Political and Literary Heritage of Central Asian Thinkers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(05), 6694-6701.
3. Makhmudov, K. (2020). Ways of Forming Intercultural Communication in Foreign Language Teaching. *Science and Education*, 1(4), 84-89.
4. Makhmudov, K. (2020). Current Problems of Teaching English and New Approaches to Resolve in Secondary Education Schools. *Modern Trends in Linguistics: Problems and Solutions*, 271-273.